

O'ZBEKISTONDA BANK SOHASIDA XUSUSIYLASHTIRISH SIYOSATI TARIXI

Sharipov Shohruz Faxriddin o'g'li
O'zFA Tarix instituti kichik ilmiy xodimi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8036965>

Annotatsiya: Ushbu maqolada so`nggi yillarda Respublikamizda amalga oshirilgan bank-moliya sohasidagi tub o`zgaishlar va unda xususiy mulkchilik shaklini oshirish maqsadida qilingan ishlar xususida so`z boradi.

Аннотация: В данной статье рассказывается о коренных изменениях в банковском деле и финансах, которые были осуществлены в нашей Республике за последние годы и о работе, проделанной в целях увеличения формы частной собственности.

Annotation: This article talks about the fundamental changes in banking and finance that have been implemented in our Republic in recent years and the work done in order to increase the form of private ownership.

Kalit so`zlar: Xususiylashtirish, bank sohasi, raqamli bank, xususiy bank, "Harakatlar strategiyasi", "Taraqqiyot strategiyasi", bank, Murojaatnoma.

Ключевые слова: приватизация, банковский сектор, цифровой банкинг, частный банкинг, стратегия действий, стратегия развития, банк, приложение.

Keywords: Privatization, banking sector, digital banking, private banking, Action Strategy, Development Strategy, Bank, Application.

O'zbekistonda 2016-yilda xususiylashtirish jarayoni haqiqiy ahvoli qanday ekanligi haqidagi Respublikamiz Prezidenti Sh. M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirish juda ham o'rinnlidir:".....Davlat raqobat qo'mitasining raisi D. Xidoyatovdan shaxsan siz va qo'mitaning bo'limmalari xususiylashtirish jarayonida pirovard natijani nima uchun nazorat qilmaysiz yoki ta'minlamaysiz. degan savolga javob berishni qa'tiy talab qilishga haqlimiz. Siz nima uchun ushbu muammolarni amalda hal etish o'rniga mena o'zingizning hech qanday natija bermagan va bermaydigan xorijiy xizmat safarlaringiz va «taqdimot»laringiz to'grisida og'iz ko'pirtirib axborot berasiz? Bugun davlat budgeti hisobidan katta mablaglarni xarajat qilib, xorijga xizmat safariga borib kelayotgan rahbarlar va ishchi guruhlaridan so'rashga haqlimiz: qani sizlar og'iz to'ldirib, qog'ozga chirolyi qilib yozib bergen natijalar, qani investor va investitsiyalar? Siz bu ishlarga mutasadi davlat qo'mitasining rahbari bo'lib, bunday natjalarni kimdan talab qilyapsiz? Birgina Koreya Respublikasiga korxonalarni sotamiz, investitsiyalar olib kelamiz, deb tashkil etgan bir nechta biznes forumlaringiz natija berdimi, qani va'dalar? Agar sizlar xorijiy safarlarga sarf qilgan xarajatlarni hisob-kitob qilsak, shu yilning o'ziga ikkita yirik korxonani sotib olsa bo'lardi. «Nol» qiymati bo'yicha 1 ming 27 ta obyekt sotilgan. Albatta, bu yaxshi, biroq nima uchun ularning ko'pchiligi, ba'zilarini hisobga olmaganda, ishga tushirilmagan va vayrona holida yotibdi? Biz ularning o'rniga nimani tashkil etdik, qanday quvvatlar va ishlab chiqarishlar barpo etildi, qancha odam ish bilan band? Nima uchun sotilishi lozim bo'lgan 119 ta aksiyadorlik jamiyatidan faqat yarmining 15 foizlik ulushi xorijiy investorlarga sotilgan? Davlat mulki talon-toroj qilingani uchun bugun kim shaxsan javob berishi kerak? So'zsiz va birinchi navbatda siz, qo'mita raisi sifatida javob berishingiz shart. Siz oldingi rahbarlarning xatolarini takrorlab, sustkashlik qilib va faqat statistika

bilan shug‘ullanib asosiy bo‘g‘inni - mamlakatning va xalqning boyligiga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni boy beryapsiz. Sizga... muammoli masalalarni bartaraf etishni, ikkinchidan. sotilgan va sotib olingan davlat mulkining ishlamasligi, undan samarasiz foydalanilgani yoki talon-toroj qilingani uchun rahbarlar va mansabdar shaxslarning huquqiy majburiyat va mas‘uliyatini puxta ishlab chiqishni nazarda tutadigan kompleks aniq chora-tadbirlarni taqdim etishni topshiraman”¹ deya aytgan so‘zlarida 2016-yil holatida bo‘lgan xususiylashtirish jarayoning aniq holatini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekistonda 2016-yilning oxiri va 2017-yilning boshlarida yangi islohotlar davri boshlandi. O‘zbekiston o‘z oldiga kuchli iqtisodiyotga ega davlat tuzishni maqsad qilib qo‘ydi. Bu maqsadga yetish uchun avvalo davlat mulkini va ulushini iqtisodiyotda kamaytirgan holda xususiy mulkchilikka keng o‘rin berishni ko‘zлади. Aynan shu maqsadda, 2017-yil 7-fevralda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risida”gi prezident farmoni qabul qilindi². Ushbu farmonning “iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberalallashtirish” nomli 3 banddida O‘zbekistonda 2017-2021-yillarda “Agar xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va kuchli bo‘ladi” tamoyili asosida iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddallashtirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg‘armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish vazifasi belgilandi. Xususiylashtirishda davlat siyosatini muqobillashtirish maqsadida, 2017-yil 18-aprelida O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasini tashkil etildi³. Harakatlar strategiyasiga muvofiq davlatning iqtisodiyotdagilari pasaytirish va bozor iqtisodiyotining asosi bo‘lmish raqobat muhitini shakllantirish maqsadida davlatga tegishli nafaqat korxona va obyektlar,mulklar, balki endi ta‘lim, transport, fuqaro aviatsiyasi va boshqa sohalarda xususiylashtorish ishlarini olib borish mumkinligi belgilandi. Bu esa, O‘zbekistonda xususiylashtirish sohasida tub burilishlardan boshlanishini anglatar edi.

O‘zbekistonda bank-moliya sohasida davlatning ulushi deyarli 80 foizdan ortiq ekanligi, bu sohada ham islohotlar zarurligini anglatadi. Bundan deyarli 30-yildan oldin, ya‘ni 1991-yil 15-fevralda “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi” to‘g‘risidagi qonun qabul qilinishi bilan O‘zbekistonda mustaqil bank tizimini yaratish uchun asos yaratilgan edi⁴. Ammo, O‘zbekistonda bank tizimi 1991-yildan beri davlat tassarufidagi sohalardan biri edi. Lekin, qonun bilan O‘zbekistonda xususiy banklarni tuzish mumkin edi (o‘z vaqtida “Rustambank va boshqa xususiy banklar ochilishiga qaramasdan, ularning faoliyati ba‘zi sabablarga ko‘ra 90-yillarda to‘xtab qolgan edi). Bir qancha xususiy banklar faoliyat yuritgan bo‘lishiga qaramasdan hali- hanuz bank sektoridagi davlat ulushi 83 foizni tashkil etadi. Shuning uchun ham bank sohasini xususiylashtirish va unda davlat ulushini kamaytirish bugungi kunda dolzarb masalardan biridir. Negaki, davlat banklarini xususiylashtirish masalasida asosiy iqtisodiy masala mulkning davlat yoki xususiy ekanligida emas, balki korxonaning qanchalik samarali ishlashidadir. Tadqiqotlar shuni

¹ Мирзиёев, Ш. М Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иктисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишлиланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январь. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2017. – Б 37.

² “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 07.02.2017 йилдаги ПФ-4947-сон <https://lex.uz/docs/3107036>

³ Xalq so‘zi gazetasi 2017-yil 19-aprel.

⁴ Bank ishi. Darslik. (Sh. Abdullaeva) Toshkent, Toshkent Moliya instituti, 2003. 13-bet.

ko'rsatadiki, davlat banklari xususiy banklarga qaraganda kamroq samarali ishlaydi⁵. Chunki, Rossiya Federatsiyasida banklarni xususiylashtirish moliyaviy rivojlanishni sezilarli darajada oshirgan va ishsizlikni kamaytirgani haqida kuchli dalillar mavjud⁶. Shunga o'xshash muvaffaqiyat O'zbekistonda ham bo'lishi mumkin. Hukumat hech bo'limganda davlat banklarining bir qismini xususiylashtirish masalasini ko'rib chiqishi kerak edi⁷.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2018-yilning 22-noyabrida o'tkazilgan moliya-bank tizimiga bag'ishlangan videoselektorda bank sohasida vaziyat muhokama qilinadi. Unda respublikada mavjud tijorat banklaridagi ustav kapitalining asosiy qismini davlat ulushi tashkil etishi va xususiy sektorga mablag`larni deyarli ajratilmagani tanqid qilinadi. Bundan tashqari, Prezidentning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida ham bank sohasida davlat ulushining yuqoriligiga yana bir bor to'xtalib, banklardagi davlat ulushining 83 foiz ekanligi, respublikadagi bank-moliya tizimining sifat darajasiga ta'sir ko'rsatib, sog`lom raqobat muhitini pasaytirayotgani tanqid qilindi⁸. Hukumat bank tizmini qo'llab-quvvatlash uchun ko'p yillardan buyon moliyaviy samaradorlik past bo'lsa ham byudjet juda kata mablag` ajratib kelayotgan edi. Shuning uchun ko'plab tijorat banklari davlatning ushbu yordamiga tayanib qolgan edi. Shuning uchun ham 2018-yildan so'ng davlat bank faoliyatini samarodorligini oshirish maqsadida bank sohasida davlat aralashuvini kamaytirish va xususiylashtirishga ko'proq e'tabor bera boshladi⁹. Albatta, davlat bank sohasidan chiqib ketadi. Davlatga tegihli banklar xususiylashtiriladi. Bu jarayon uzoq davom etishi mumkin, ammo, albatta sodir bo'ladi¹⁰.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli farmonida bank sohasini rivojlantirish maqsadida bo sohada xususiy mulkchilikning rolini oshirish va davlat ulushini kamaytirish maqsadida bir qancha zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilgan edi. Unga ko'ra, 2025-yilgacha xususiy aktivlar hajmini 15 foizdan 60 foizga oshirish va bir qancha banklarni (Ipoteka-bank, O'zsanoatqurilishbank, Asaka, Aloqabank, Qishloq qurilish bank, Turonbank) xususiylashtirish zarurligi ta'kidlandi¹¹. Bu strategiyada belgilangan xususiylashtirish jarayonarini tashkil etish maqsadida bir qancha ishlar qilindi. Masalan, 2021-yil 30-sentyabrda "Poytaxtbank" AJ xususiylashtirish bo'yicha "Ekspobank" AJ va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi o'rtasida Memorandum imzolandi¹². Bundan tashqari, 2022-yilda "O'zagroeksportbank" (2017-yilda respublikada qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvichlar uchun shart-sharoit yaratish va eksportchilarining

⁵ Cole, S. 2009. Financial Development, Bank Ownership, and Growth: Or, Does Quantity Imply Quality? *The Review of Economics and Statistics*. 91(1): pp. 33–51.

⁶ Berkowitz, D., M. Hoekstra, and K. Schoors. 2014. Bank Privatization, Finance and Growth. *Journal of Development Economics*. 110: pp. 93–106

⁷ Kym Anderson, Edimon Ginting, and Kiyoshi Taniguchi Uzbekistan quality job creation as a cornerstone for sustainable economic growth country diagnostic study ADB 2020 may p.24

⁸ Ханнаев Ш. Турли мулкчиллик шаклидаги банклар фаолияти самараадорлиги таҳлили // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2019 йил -Б 2.

⁹ Валижонов А.Р. Ўзбекистон банк секторида хусусийлаштириш масалалари. // Янги Ўзбекистонда молия институтларини трансформация қилиш: муаммолар ва ечимлар. Республика илмий-амалий конференция тезислари тўплами (24 август 2022 йил). – Тошкент: Молия, 2022. – Б. 23-25.

¹⁰ Т.Ишметов «Государство не будет наращивать долю в банках», Газета.uz, Ташкент, 26.11.2018 <https://www.gazeta.uz/ru/2018/11/26/bank/>

¹¹ <https://lex.uz/docs/-4811025>

¹²<https://davaktiv.uz/uz/news/mezhdu-agentstvom-po-upravleniju-gosudarstvennymi-aktivami-i-ao-ekspobank-podpisani-memorandum-o-namerenii-privatizatsii-ao-pojaht-bank>

moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan bank)ning 100 foiz davlat ulushi Rossiya Federatsiyasining “Sovkombank”iga 4 mln AQSh dollariga sotuv bo'yicha kelishuvga erishildi¹³. Ammo, keyinchalik ma'lum sabablar tufayli u bitim bekor bo'ldi. Lekin, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, hali ham birorta davlat banki to'liq xususiyashtirilgan emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев, Ш. М Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иктисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иктисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига багишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январь. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2017.
2. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 07.02.2017 йилдаги ПФ-4947-сон <https://lex.uz/docs/3107036>
3. Xalq so'zi gazetasi 2017-yil 19-aprel.
4. Bank ishi. Darslik. (Sh. Abdullaeva) Toshkent, Toshkent Moliya instituti, 2003.
5. Cole, S. 2009. Financial Development, Bank Ownership, and Growth: Or, Does Quantity Imply Quality? *The Review of Economics and Statistics*. 91(1):
6. Berkowitz, D., M. Hoekstra, and K. Schoors. 2014. Bank Privatization, Finance and Growth. *Journal of Development Economics*. 110: pp. 93–106
7. Kym Anderson, Edimon Ginting, and Kiyoshi Taniguchi Uzbekistan quality job creation as a cornerstone for sustainable economic growth country diagnostic study ADB 2020 may
8. Ханнаев Ш. Турли мулкчилик шаклидаги банклар фаолияти самарадорлиги таҳлили // “Иктисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2019 йил
9. Валижонов А.Р. Ўзбекистон банк секторида хусусийлаштириш масалалари. // Янги Ўзбекистонда молия институтларини трансформация қилиши: муаммолар ва ечимлар. Республика илмий-амалий конференция тезислари тўплами (24 август 2022 йил). – Тошкент: Молия, 2022.
10. Т.Ишметов «Государство не будет наращивать долю в банках», Газета.uz, Ташкент, 26.11.2018 <https://www.gazeta.uz/ru/2018/11/26/bank/>
11. <https://lex.uz/docs/-4811025>
12. <https://davaktiv.uz/uz/news/mezhdu-agentstvom-po-upravleniju-gosudarstvennymi-aktivami-i-ao-ekspobank-podpisan-memorandum-o-namerenii-privatizatsii-ao-pojaht-bank>
13. <https://davaktiv.uz/uz/news/information-on-sale-of-100-state-block-shares-of-jscb-uzagroexportbank>

¹³ <https://davaktiv.uz/uz/news/information-on-sale-of-100-state-block-shares-of-jscb-uzagroexportbank>